

O‘ZBEKISTONDA QISHLOQ TURIZMI INFRATUZILMASINI RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI

Agzamova Nargiza Gapurovna

Assistant teacher, Tashkent State University of Economics

n.agzamova@tsue.uz; Orcid:0009-0007-5655-1265

Annotatsiya: *Mazkur ilmiy maqolada O‘zbekistonda qishloq turizmi infratuzilmasini takomillashtirish va rivojlantirishning asosiy strategik yo‘nalishlari muhokama qilinadi. Shuningdek, xorijiy tajribalar tahlil qilinib, milliy sharoitga mos taklif va tavsiyalar ilgari suriladi.*

Kalit so‘zlar: *qishloq turizmi, turistik infratuzilma, rekreatsion xizmatlar, ekologik turizm, iqtisodiy rivojlanish, samaradorlikni oshirish omillari*

Kirish

Prezidentimiz tomonidan 2019 yil 5 yanvarda, “O‘zbekiston Respublikasida turizmni jadal rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-5611 sonli farmon qabul qilindi¹.

Bu farmonga asosan quyidagi yo‘nalishlar:

- turizm infratuzilmasini rivojlantirish hamda maqbul va qulay turizm muhitini yaratish;
- turizm bozorining turli sigmentlariga yo‘naltirilgan turizm mahsuloti va xizmatlarini diversifikatsiya qilish;
- turizm tarmog‘i uchun kadrlar tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini takomillashtirishga alohida e‘tibor berilgan bo‘lib, amalga oshirilishi kerak bo‘lgan vazifalar belgilab berildi.

Turizmni rivojlantirish mamlakatning savdo, transport, aloqa, qishloq xo‘jaligi, qurilish, iste‘mol tovarlarini ishlab chiqarish kabi muhim iqtisodiy tarmoqlariga rag‘batlatiruvchi ta‘sir ko‘rsatishdan tashqari, iqtisodiy qayta qurishning eng istiqbolli yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Xalqaro xizmatlar savdosida turizmning ulushi XXI asr boshidan beri qariyb 30 % ni tashkil etib keldi, u eksportdan kelayotgan eng yuqori daromadni ta‘minladi [1]. Jahon turistik tashkiloti (UN Tourism) ma‘lumotlariga ko‘ra, 2019-yilda turizm industriyasi hissasiga jahon YaIMning 10,3%, jahon eksportining 7%, xizmatlar eksportining 27,4%, kapital qo‘yilmalarining 9%, iste‘mol xarajatlarining 11%, soliq tushumlarining 5%dan ziyodi to‘g‘ri kelgan, turizm sektori aholi bandligini ta‘minlashda muhim ahamiyatga ega bo‘lib, pandemiyagacha bo‘lgan davrda iqtisodiyotda band bo‘lgan har 11 kishining bittasi shu sohada faoliyat ko‘rsatgan[2]. Biroq, COVID-19 pandemiyasi industriyaga katta zarar

yetkazdi. Shunga qaramay turizm iqtisodiy faoliyatning yuqori daromad keltiruvchi yo‘nalishi hisoblanadi, bir qator mamlakat va mintaqalarning iqtisodiy rivojining katalizatori vazifasini bajaradi.

Adabiyotlar tahlili

Qishloq turizmi tushunchasini izohlab berishda xorijlik mualliflar hamda halqoro tashkilotlarda hilma-xillikni ko‘rishimiz mumkin. Xalqaro turizm tashkiloti tomonidan qishloq turizmi bo‘yicha quyidagi ta’rif berilgan: Qishloq turizmi bu-turizm bozorining segmenti bo‘lib, uning o‘ziga xos xususiyati jozibali qishloq joylarda, qo‘riqlanadigan tabiiy xududlarda tabiatdagi rekreatsion faoliyat turidir. Ushbu segment qator faoliyat turlarini o‘z ichiga oladi: ilmiy turizmdan, yovvoyi tabiatni kuzatish, fotografiya, extiyojni qondirish (baliqchilik va ovchilik), shuningdek sport va sarguzasht turizmigacha[3]. Xalqaro turizm tashkilotining Madriddagi maxsus ma’ruzasida (2001 yil) ma’lum qilinishicha, Germaniyada tabiiy (qishloq) turizm turistik bozor segmenti sifatida qaralib, asosiy o‘ziga xos tomoni tabiatdagi jozibador qishloq joylarida, tabiiy qo‘riqlanadigan xududlarda dam olish tushuniladi. Bu segment o‘z ichiga bir qancha faoliyat turlarini qamrab oladi: yovvoyi tabiatni kuzatib rasmga muhrlashdan tortib ov qilish, baliq ovlash, hamda sport va sarguzasht turizmigacha[4].

“Qishloq turizmini rivojlantirish” kategoriyasiga berilgan ta’riflar.

No	Mualliflar	Berilgan ta’riflar
1	Utami D.Dhewanto W. Lestari Y.	“Tadqiqot sayyohlik qishlog'ining barqarorligini ta'minlash bo'yicha maqsadli tanlab olish texnikasidan foydalanilgan ... sayyohlik qishlog'ining muvaffaqiyatli rivojlanishini ta'minlaydi.[5]”.
2	Sulistiowati R., Mulyana N., Yulianto., MeilindaS.	“Olim tadqiqotida Way Kambas milliy bog'i (TNWK) atrofidagi sayyohlik qishloqlarida ekoturizmni rivojlantirish faoliyati orqali tabiatni muhofaza qilishda ayollarning rolini o'rgangan. Ushbu faoliyatda ayollarning roli mavjud hodisalarni ekofeminizm nuqtai nazaridan yoritgan. Ekofeminizm tabiatni kerakli darajada tiklash, ya'ni saqlab qolish va himoya qilishning bir usuli hisoblanadi.[6]”.
3	Alieshchenko L.	“Qishloq turizmi sohasida yoshlar tadbirkorligini joriy etish bo‘yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqish, mehnat migratsiyasi,

		yoshlarning ishsizligi va qishloqlarning tanazzulga uchrashi muammosini yengish borasida echimlar taklif qilgan. Qishloq turizmi sohasida yoshlar tadbirkorligini zamonaviy sharoitda rivojlantirish, davlat byudjetiga katta miqdorda mablag'lartushishi va ulardan oqilona foydalanish [7]”.
4	<u>Bao Y., Jiang H., Ma E., Sun Z., Xu L.</u>	“Turizmning barqaror rivojlanishi Xitoydagi tarixiy va madaniy ahamiyatga ega qadimiy qishloqlarni jonlantirish uchun juda muhim. O‘zaro munosabatlarning uzoq vaqtdan beri tan olinishiga qaramay qishloq joylarining fazoviy taqsimoti va ularning barqaror rivojlanishi o‘rtasida mavjud qishloq turizmida bo‘ylama tadqiqotlarning etishmasligi. Geografik axborot tizimidan (GIS) foydalanib, fazoviy tahlil usuli va fazoviy ma’lumotlarni tahlil qilish modeli tadqiqot doirasida o‘rganildi [8]”.
4	YanJun Liu	“Qadimdan qishloq turizmining rivojlanishi aslida o‘ziga xosdir. Xitoy tarixi va madaniy merosi mahalliy iqtisodiy rivojlanishga hissa qo‘shadi. Shuningdek, qadimiy qishloqlarda turizmini rivojlantirish jarayoni, mahalla aholisi o‘rtasidagi munosabatlar va turizmni rivojlantirish tobora ko‘proq namoyon bo‘lmoqda. Ushbu maqola qadimgi qishloqlarda jamoa ishtirokining yangi usulini o‘rganishga qaratilgan. Xitoyda qadimiy qishloqlarda turizmining barqaror rivojlanishini rag‘batlantirish muhim turizmdir.[9]”
5	Zhanveng Guo, Li Sun	“Xitoyning Shaansi shahridagi Dangjia qadimiy qishlog‘ida olib borilgan tadqiqotlar natijasida olingan sifat va miqdoriy tahlil yordamida rivojlantirish masalalarni tahlil qiladi. U talabning o‘zgaruvchan takliflarini va ushbu talablarni qondirish usullarining

		o‘zgarishini aniqlaydi. Ushbu o‘zgarishlarning aksariyati mahalliy ijtimoiy va moliyaviy kapitaldagi kamchiliklar bilan bog‘liq. Milliy va xalqaro miqyosda yanada kengroq qo‘llaniladigan qishloq turizmi barqarorligini oshirish yo‘llari bo‘yicha takliflar bildirgan.[10]”
6	Li X. , Xie C. , Morrison A. , Nguyen T	“Etnik ozchilik qishloqlari ma‘lum yo‘nalishlarda turizmning muhim qismi bo‘lib, ko‘pincha mahalliy va xalqaro tashrif buyuruvchilarni noyob mahalliy madaniyatlar va haqiqiy turmush tarzi bilan tanishish uchun jalb qiladi. Biroq, tegishli adabiyotlarning ko‘pchiligi etnik ozchiliklarning qishloq turizmiga oid turistik motivatsiyalar, tasavvurlar va munosabatlarni o‘rganmagan. Ushbu tadqiqotda Xitoyning Guychjou provinsiyasidagi etnik ozchilik qishloqlari tajribasi bilan o‘rtoqlashayotgan odamlar tomonidan yuklangan foydalanuvchilar tomonidan yaratilgan bloglar tahlil qilindi. ROST Content Mining 6 dasturi ozchiliklarning qishloq turizmiga bo‘lgan motivatsiyalar, tasavvurlar va munosabatlarni aniqlash uchun ishlatilgan.[11]”.

Yuqorida keltirilgan 1-jadvalda ta’kidlaganimizdek hozirgi davrda qishloq turizmi rivojlantirish yuzasidan xorijiy mamlakatlarda eng mashhur olimlar o‘z tadqiqotlarida e’tirof etishgan. Zamonaviy xalqaro amaliyotda qishloq turizmini rivojlantirish ko‘pincha turizmning boshqa turlari bilan birlashtirilib, ekoturizmni qamrab oladi.

Xozirgi davrga kelib, Frantsiya, Italiya, Markaziy Yevropa, Bolqon yarim oroli, Germaniya, Buyuk Britaniya, AQSh va Kanadada qishloq turizmi geografiyasi sezilarli darajada kengaymoqda. Shuningdek, qishloq turizmi sayyohlarning ichki olamiga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Chunki sayyoh mehmon uyining egasidikiga mehmonga kelgandek his qiladi[12]. Bu yerda yollanma ishchilar xizmat ko‘rsatmaydi, taomlar ham mehmon uyi bekalari tomonidan uy sharoitida tayyorlangan bo‘ladi. Qishloq turizmida

asosiy joylashtirish vositalari mehmon uyi bo‘lib, “u kichikroq, ko‘pincha oilaviy mehmonlar uchun, qisqa muddatli joylashtirish xizmatlarini, ovqatlanish, ekskursiya dasturlari, mehmonlarning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish va boshqa qo‘shimcha xizmatlarni tashkil etadi[13].”

Tadqiqotimiz davomida xorijlik va MDH davlatlari tadqiqotchilari bilan birga o‘zbekistonlik iqtisodchi olimlarimizning ham ishlarini o‘rgandik. Jumladan, iqtisodchi olim E.V.Golisheva o‘zining “Сельский туризм: от теории к практике” o‘quv qo‘llanmasida qishloq turizmiga quyidagicha ta’rif bergan: “Qishloq turizmi (agro turizm, yashil turizm, ekoturizm) bu fuqarolarning (ham mahalliy, ham xorijiy) asosiy yashash joyidan qishloq joylarga sayohat qilish maqsadida va/yoki qishloq xo‘jaligi ishlarida ishtirok etish, lekin vaqtincha yashash joyida daromad olmaydigan faoliyat bo‘lib, tabiiy, madaniy-tarixiy va qishloq joylarning boshqa resurslaridan foydalanishga qaratilgan, hamda kompleks turistik mahsulot yaratishga xos turizm sektori,[14]” deb ta’riflagan.

Tadqiqot metodologiyasi

Ushbu maqola har bir ilmiy izlanish kabi olimlarning fikrlari va mulohazalarini tahlil etishni o‘z ichiga olib asosiy maqsadga erishish uchun ilmiy tasviriyl tahlil, qiyosiy tahlil, tizimli yondashish, statistik tahlil kabi usullardan foydalanildi.

Tahlil va natijalar muxokamasi

Qishloq turizmi zamonaviy turizm industriyasida muhim yo‘nalishlardan biri bo‘lib, u nafaqat iqtisodiy rivojlanishga, balki milliy merosning saqlanib qolishiga va madaniy boyliklarning keng ommaga tanishtirilishiga xizmat qiladi. Jahon tajribasi shuni ko‘rsatadiki, qishloq turizmining rivojlanishi orqali ichki va xalqaro turizmning o‘sishiga erishish mumkin.

Qishloq turizmini rivojlantirishda bir qator resurslar muhim o‘rin tutadi. Ular quyidagilardan iborat:

1. Tarixiy-arxeologik turizm resurslari – tarixiy obidalar, arxeologik yodgorliklar va madaniy meros ob’ektlari.

2. Etnografik turizm resurslari – mahalliy an’analar, folklor, urf-odatlar, milliy o‘yinlar va turli marosimlar.

3. Qishloq xo‘jaligi-agroturizm resurslari – qishloq xo‘jaligi bog‘lari, dehqonchilik, madaniy landshaftlar va polizchilik faoliyatlari.

4. Diniy-ziyosat turizmi resurslari – muqaddas qadamjolar, aziz-avliyolarning qabrlari, shifobaxsh buloqlar va diniy marosimlar.

Ekologik turizm resurslari – tog‘lar, cho‘llar, suv havzalari va boshqa tabiiy-geografik hududlar.

1.Rekreatsion va sog'lomlashtirish turizmi resurslari – pansionatlar, sog'lomlashtirish markazlari, mineral suvlar va tabiat qo'riqxonalari.

2.Qishloq fermerlari faoliyati – qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirish va ularni sotish jarayonlari.

Yuqorida qayd etilgan turizm yo'nalishlari bir-biri bilan o'zaro bog'liq bo'lib, ularni majmuaviy tarzda rivojlantirish orqali turistlarni uzoqroq muddatga jalb qilish mumkin. Bu esa qishloq joylarining iqtisodiy o'sishiga va infratuzilmasining yaxshilanishiga xizmat qiladi.

Qishloq turizmining rivojlanishi bo'yicha AQSh, Kanada, Frantsiya, Angliya, Germaniya, Italiya, Avstraliya va Ispaniya kabi davlatlar katta muvaffaqiyatga erishgan. G'arbiy Yevropa mamlakatlarida bu yo'nalishdagi dasturlar jadal rivojlantirilmoqda. Sharqiy Yevropa davlatlari esa uzoq yillar sobiq sovet ittifoqi ta'sirida bo'lganligi sababli, bu sohada yetarli darajada rivojlana olmagan.

Qishloq turizmining rivojlanishini ta'minlash uchun quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish zarur:

Qishloq turizmini rivojlantirishning huquqiy va me'yoriy asoslarini takomillashtirish;

Salohiyatli turistlarga va rivojlanayotgan tarmoqlarning axborot byurolariga qishloq turizmi haqidagi barcha ma'lumotlarni, axborotlarni bepul yetkazib berish;

Dasturda qatnashuvchi dehqon xo'jaliklarini manzili bo'yicha moliyaviy quvvatlash;

Qishloq infratuzilmalarini takomillashtirish bo'yicha maqsadli mablag'lar ajratish;

Fermerlarni dotatsiyalash va imtiyozli soliqlar belgilashda rag'batlantirish siyosatini qo'llash;

Loyihalarni amalga oshirish uchun investorlarni izlash;

Qishloq turizmi korxonalarini xususiylashtirishda davlatning foizli qatnashuvini ta'minlash;

Qishloq joylarining holati monitoringini doimiy o'tkazib borish.

Xulosa

Demak, tahlillarimiz asosida bir qator muhim ahamiyatga ega quyidagi xulosalarga keldik:

Birinchidan, qishloq turizmi turizmning bir turi bo'lib, bunda tabiiy xududlarda, an'anaviy madaniyat bilan muloqotga kirishib, qishloqda dam olish tushuniladi;

Ikkinchidan, qishloq turizmida joylashtirish vositalari bular: o'zida etnomadaniy xususiyatlarni saqlab qolgan mehmon uylari, xostellar, fermer yoki dehqon xo'jaligidagi shaxsiy uylar, xududning o'ziga xos arxitekturasini saqlab qolgan kichik mehmonxonalar hisoblanadi. Qishloq turizmi mahalliy aholiga yangi ish o'rinlarini yaratish, hamda daromad keltiruvchi xizmatlar orqali xududning iqtisodiy o'sishiga olib keladi;

Uchinchidan, Respublikamizda qishloq turizmini rivojlantirish masalasi xanuzgacha etarlicha ilmiy tadqiq etilmagan. Shu sababli, xalqaro tehnologiyalar va ilfor tajribalarini yrganiish orqali milliy qishloq turizmi strategiyasini ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir. Qishloq hududlarida turizmni tashkil etish nafoqat iqtisodiy jihatdan foydali, balki aholi uchun yangi ish yurinlarini yaratish, madaniy merosni asrash va jahon turizm bozorida raqobatbardoshlikni oshirish imkonini beradi. Shuningdek, shahar aholisining qishloqlarda dam olishini tashkil qiliish, ekologik madaniyatni rivojlantirish va qishloq xujaligini rivojlantirish orqali ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiётga eriishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. <https://www.statista.com/statistics/1099933/travel-and-tourism-share-of-gdp/>
2. <https://www.unwto.org/tourism-statistics>. Tourism statistics.
3. <https://www.tohology.com/hospitality/industry/unwto-statistika-mezhdunarodnyh-poezdok/>
4. Социально - культурные туристские ресурсы Алтайского региона. Проблемы и перспективы использования. Материалы международной научно-практической конференции/ред. кол.: А.С. Кондыков и др. - Барнаул: изд-во АГИИК, 2009. - 220 с. с-80.
5. Utami D., Dhewanto W., Lestari Y. "Sustainable Tourism Village through Rural Tourism Entrepreneurship"/ <https://www.mendeley.com/catalogue/46b43924-b4fa-34d2-b685-e68ea6e58db7/>
6. Sulistiowati R., Mulyana N., Yulianto., Meilinda S. "The existence of women in nature conservation through the development of tourism village". <https://www.mendeley.com/catalogue/7460e3f9-c390-3d96-89b8-6c4411c6fd8e/>
7. Alieshchenko L. "THE ROLE OF YOUTH ENTREPRENEURSHIP IN THE DEVELOPMENT OF RURAL TOURISM" <https://www.mendeley.com/catalogue/ac16304b-1beb-3261-b2efaa7644bb55a/>
8. Bao Y., Jiang H., Ma E., Sun Z., Xu L. "A Longitudinal Spatial-Temporal Analysis of Ancient Village Tourism Development in Zhejiang, China." *Sustainability (Switzerland)* (2023) 15(1), <https://doi.org/10.3390/su15010143>.
9. Yanjun Liu. "The Importance of Community Participation on Ancient Village Tourism Development of China." <https://www.mendeley.com/catalogue/5ad17606-cf7d-3abc-b81e-51b36654d127/>

10. Zhanveng Guo, Li Sun, “The planning, development and management of tourism: The case of Dangjia, an ancient village in China”. *Tourism Management* (2016) 56 52-62//DOI: [10.1016/j.tourman.2016.03.017](https://doi.org/10.1016/j.tourman.2016.03.017)

11. Li X., Xie C., Morrison A., Nguyen T //“Experiences, Motivations, Perceptions, and Attitudes Regarding Ethnic Minority Village Tourism” *Sustainability (Switzerland)* (2021) 13(4) 1-18., DOI: [10.3390/su13042364](https://doi.org/10.3390/su13042364)

12. Wanda George E. Rural Tourism Development: Localism and Cultural Change (Tourism and Cultural Change) / E. Wanda George, H. Mair, D.G. Reid. -Bristol, Buffalo, Toronto: Channel View Publications, 2009. - 288 p.

13. Чудновский А. Д. Управление потребительскими предпочтениями в сфере отечественного туризма и гостеприимства и основные направления реализации туристского продукта: учебное пособие / А.Д. Чудновский, М.А. Жукова. - М.: Федеральное агентство по туризму, 2014. - 304 с.

14. В гости к природе. Маркетинг в сельском туризме: методические рекомендации/ вёрстка и дизайн С. Васильев. - Псков: ГК ТИПР, 2010. - 4 с.

15. Агротуризм : проблемы и перспективы развития : монография / В. А. Кундиус [и др.] ; М-во сел. хоз-ва Рос. Федерации, Федер. гос. образоват. учреждение высш. проф. образования "Алт. гос. аграр. ун-т". - Барнаул : Азбука, 2011. - 4 с.

16. Е.В.Голышева. Сельский туризм: от теории к практике : [т]Учебное пособия /. -Ташкент: “Bookmany print”, 2022.-17с.

17. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 26.04.2023 yildagi, PQ- 135-son (<https://www.lex.uz/uz/docs/-6456786>)

18. I.Y.J.Choyi., C.L.McNeelli, “A Reinvented Community: The Case of Gamcheon Culture Village” <http://dx.doi.org/10.1080/02732173.2018.1430635> 2. In-Han Kang, Seong-Hun Kim, Nae-Young Choei.”A Comparative Study on the Making of Tourist Attraction Foothill Villages: The Cases of Gamcheon Culture Village in Busan, Korea vs. Kitano Ijinkan in Kobe, Japan”, <https://www.cpij.or.jp/com/iac/upload/file/2017icapps/071.pdf>

19. <https://stat.uz/uz/reporting-forms/48-rasmiy-statistika>

20. A.Aymuhamedova. “Hudud rivojiga investitsiyaviy salohiyatning ta’siri”. "Iqtisodiy sharh" jurnali №3/2023 (<https://review.uz/journals/view/3-2023>)